



CULTURAL LIFE DURING THE HEPHTHALITE PERIOD

Shokhrukh Sultanov

Oriental University

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: writing, religion, Zoroastrianism, Buddhism, art, architecture, Sogdian, Ephthalites, Kushan, Khorezm.

Received: 11.05.25

Accepted: 13.05.25

Published: 15.05.25

Abstract: The Ephthalite state was one of the largest states located on the Great Silk Road, and was considered a crossroads for various cultures and trade routes. The cultural and spiritual world of this vast state was also diverse. Zoroastrianism, Buddhism, Manichaeism, Christianity and other religions were spread in the regions from East Turkestan to the Caspian Sea. There were also many forms of writing: Sogdian, Khorezmian, Kushan and Ephthalite, some examples of which have survived to us. The article discusses the cultural and spiritual life during the Ephthalite period.

EFTALIYLAR DAVRIDA MADANIY HAYOT

Shohruh Sultonov

Oriental universiteti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: yozuv, din, zardushtiylik, buddaviylik, san'at, me'morchilik, So'g'd, eftallar, kushon, Xorazm.

Annotatsiya: Eftallar davlati buyuk ipak yo'lida joylashgan yirik davlatlardan biri bo'lib, turli madaniyatlar, savdo yo'llari uchun chorraxa hisoblangan. Bu ulkan davlatda madaniy va ma'naviy dunyosi ham turli-tuman bo'lgan. Sharqiy Turkistondan tortib Kaspiy dengizigacha bo'lgan hududlarda zardushtiylik, buddaviylik, moniylik, xristianlik va boshqa dinlar tarqalishi kuzatiladi. Yozuvlarning ham ko'plab ko'rinishlari: so'g'd, xorazm, kushon va eftal kabi turlari mavjud bo'lganki ularda bizgacha ayrim namunalar yetib kelgan. Maqolada

КУЛЬТУРНАЯ ЖИЗНЬ В ПЕРИОД ЭФТАЛИТОВ

Шохрух Султанов
Oriental universitet
Tashkent, Uzbekistan

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: письменность, религия, зороастризм, буддизм, искусство, архитектура, Согд, эфталиты, Кушаны, Хорезм.

Аннотация: Государство Эфталитов было одним из крупнейших государств, расположенных на Великом Шелковом пути, и считалось перекрестком различных культур и торговых путей. Культурный и духовный мир этой огромной страны также был разнообразен. Зороастризм, буддизм, манихейство, христианство и другие религии распространены на территории от Восточного Туркестана до Каспийского моря. Существовало также много форм письменности: согдийская, хорезмийская, кушанская, эфталитская, некоторые образцы которых сохранились до нас. В статье рассматривается культурная и духовная жизнь в эпоху эфталитов.

Eftaliylar davrida o'lkamiz odamlari o'ziga xos boy madaniy va ma'naviy turmush tarzini yaratib, undan bahramand bo'lishga harakat qilganlar. Ayni chog'da ular o'zlaridan keyingi avlodlar uchun ham munosib izqoldirganlarki, bunga ularning davriga oid turli hududlardan topilgan ko'plab noyob topilmalar, asori atiqalar guvohdir. Eftaliylarning ma'naviy madaniyatiga doir ma'lumotlar juda kam. Shu bilan birga ularning qaysi tilda muloqot qilganliklari ham olimlar tomonidan juda kam o'rganilgan. Shu davrga oid saqlanib qolgan manbalarga ko'ra eftaliylar tili turk, eron tillaridan yoki qandaydir noma'lum bir tildan shakllanganligi olimlar tomonidan e'tirof etilgan. Eftaliylar davlati tarkibiga kirgan turli hududlarda eftaliy tili bilan birgalikda, yana turli tillarda so'zlashganlar. Jumladan so'g'd tili keng muomalada bo'lib, unga oid xujjatlar Sharqiy Turkistondan ham topilgan. So'g'd tilidan tashqari xorazm yozuvi keng qo'llanilgan. Toxariston va shimoliy-g'arbiy Hindistonda kharoshti, sosoniylarga chegaradosh bo'lgan hududlarda esa pahlaviy yozuvi ishlatilgan. Baqtriycha alfavit mutaxassislarning fikricha IV asrda eftaliylar tomonidan qabul qilingan bo'lib, aslida yunon yozuvi asosida rivojlangan va Yunon-Baqtriya davlati davrida butun Baqtriya hamda unga yondosh hududlarda keng qo'llanilgan.

Keyinchalik bu yozuv Kushon davlatining rasmiy yozuvi bo'lib, undan eftaliylarga o'tgan. Lekin eftaliy yozuvlari kushon va baqtriy yozuviga ko'ra o'zining kursivligi jihatidan farqlanib turadi, bu esa mutaxassislar uchun uni o'qishda qiyinchilik tug'diradi. Shuni ta'kidlab o'tish joizki

baqtriya yozuvida 25 ta harf bo'lib, 24 tasi yunon belgilari va bittasi eramizning I asrida qo'shilgan. Eftaliylar yozuvining kushon yozuvi bilan aloqadorligi Avreliy Steynning Lou-Landa (Sharqiy Turkiston) topgan qo'lyozma parchalarini kushon va eftaliy tangalarining bir-biriga solishtirib ko'rishi natijasida isbotlandi. Bu esa yozuvning eftaliylar davrida Sharqiy Turkistonda keng qo'llanilganligidan dalolat beradi. Eftaliylar davri madaniyati xususida gap borganda shuni qayd etish lozimki, bu paytlarda o'lkada juda ko'plab moddiy va ma'naviy yodgorliklar bunyod etiladi. Varaxsha shahri obidalari, Termiz yaqinidagi Bolaliktepadan topilgan saroy, uning devorlariga ishlangan betakror tasvirlar, o'ymakorlik va ganjkorlik namunalari - bular ajdodlarimiz badiiy mahoratidan yorqin dalolatdir. Bu davrning moddiy madaniyatiga oid yodgorlik sifatida Xorazmdagi Tuproqal'a to'g'risida ma'lumot keltirib o'tish joizdir [1]. Uning tuzilishi to'g'ri burchakli bo'lib (500x 360 m), gumbazsimon yo'lakli va burjli mudofaa devori bilan o'ralgan. Devorning janubiy qismidagi darvozadan ibodatxonaga tomon asosiy ko'cha o'tgan [3, 213-214; 2, 126].

Ko'ndalang tushgan ko'chalar shaharni 10 ta mavzega bo'lgan. Tuproqqal'aning shimoliy-g'arbiy qismida maxsus ko'tarma supa ustiga xom g'ishtdan saroy qurilgan. Unga yonma-yon ark binosi joylashgan. Bundan tashqari 100 ga yaqin turar-joy, xo'jalik binolari va 8 ta saroy zali mavjud bo'lgan. Qal'aning janubiy-sharqiy burchagidagi 4ta xonada teri va yog'ochga yozilgan qadimgi Xorazm yozuvidagi 80 dan ortiq hujjatlar topiladi. Bu davrda o'lkamizda yozuv madaniyati ham rivoj topgan. Aholi o'rtasida keng tarqalgan sug'd yozuvi bilan birlikda undan bir qadar farq qiluvchi xorazm va eftaliy yozuvlari ham qo'llanilgan. Bu yozuvlarda ajdodlarimizning tarixi, taqdiriga oid ko'plab qimmatli bitiklar, ma'lumotlar bayon qilingan.

Shuningdek eftaliylar davri qo'shiqlari va eposlari Firdavsiyning mashhur «Shohnoma»sida ham o'z ifodasini topgan. Eftaliylarda kishilar turli dinlarga e'tiqod qilganlar. Eng keng tarqalgan din-zardushtiylik bilan bir qatorda budda dini ham ancha rasm bo'lgan. Bundan tashqari bu erdagi mahalliy aholi avvaldan e'tiqod qilib kelgan Vaxsh, Mitra, Anaxita (Quyosh) xudolariga ham sig'inganlar. Sharqda qadimdan nishonlanib kelingan "Navro'z" va unga xos marosimlar Buxoro, Samarqand va boshqa shaharlarda va aholi turar joylarida keng bayram qilingan.

Eftaliylarning urf-odatlarida patriarxal-urug'chilik tuzumining qoldiqlari saqlanib qolgan. Chunonchi, Xitoy manbalarida aytilishicha, ularda bir necha aka-ukada bitta umumiy xotin bo'lgan. Shuningdek hukmron tabaqa vakillarida esa buning aksi o'laroq ko'p xotinlilik hukm surgan. Agar boy-badavlat oila vakili vafot etgan bo'lsa, uni barcha rasm-rusumlar bilan, tantanali suratda tosh daxmaga, oddiy kishilar murdasi esa tuproqdan yasalgan qabrga qo'yilgan.

Eftaliylar shaharlarida mangu olov uylari bo'lib, ular zardushtiylik dinining muqaddas maskanlari sifatida aholi tomonidan ziyorat etib borilgan. Eftaliylar yozuvi haqida VII asrda Markaziy Osiyoda bo'lgan Syuan Szyan ham ma'lumot berib, bu yozuv 25 harfdan iborat

bo'lganligi va gorizontal holda chapdan o'ngga qarab o'qilishini aytib o'tgan. Eftaliylar davriga oid qo'lyozma parchalari hamda tangalardagi bitiklardan tashqari yana o'sha davrga oid sopol parchalari hamda devoriy suratlardagi qisman saqlanib qolgan yozuvlarni ham keltirish mumkin.

Jumladan, Zangtepadan (Termiz) topilgan sopol parchasidagi oltita harfdan iborat yozuv, Qoratepadan (Eski Termiz) topilgan sopol parchasidagi yozuv, Afrosiobdagi (Samarqand) ikki qator kursiv yozuvidagi hujjat parchasi kabi bir qator ashyoviy dallillar bunga misol bo'ladi. Hozirgi kunda olib borilayotgan arxeologik tadqiqotlar va keyingi izlanishlar eftaliylar davriga oid yozma ma'lumotlarni yanada to'ldirish imkonini berishi shubhasiz. Yangi ma'lumotlar sirasiga Shimoliy Afg'onistondan topilgan baqtriy tilida bitilgan qo'lyozma hujjatlarini kiritish mumkin. Unda kushon davridan boshlab to VIII asrgacha bo'lgan "Hukmdor Robning arhivi" deb nomlangan hujjatlar saqlangan. Bu arxiv asosan yuridik hujjatlardan tashkil topib N. Shmis Uilyams tomonidan tarjima qilingan va nashr ettirilgan. Bu hujjatlar qatorida uchasi o'ziga hosdir. Ularning birida eftaliy hukmdorlarga to'lanadigan soliqlar haqida ma'lumotlar bitilgan hamda 492-527 yillar bilan belgilangan. Yana birida esa mazmuni jihatidan qiziqarli, o'ziga xos ma'lumotlar keltirilgan.

Jumladan, "Sartga, Hvade-band o'g'li, taraqqiy etayotgan eftaliy halqi yabg'usi har Robaga, eftaliy hukmdori kotibi, Toxariston va Gurchiston sudyasiga" degan bitiklardir. Eftaliylar tilining kelib chiqishi haqida turlicha fikrlar mavjud bo'lib, bir guruh olimlar uni sharqiy eron tillariga mansub desalar, bir qator olimlar turkiy til oilasiga mansub degan fikrni ilgari suradilar. Umuman olganda, eftaliylar davlati o'z tarkibiga turli qabilalarni, turli tilda so'zlashuvchi xalqlarni kiritgan bo'lsada hukmdor sulolalar ma'lum bir qabiladan kelib chiqqan, bu esa eftaliylarning tili va o'zlarining etnik jihatdan kelib chiqishiga ko'ra mutaxassislar o'rtasida turli munozaralarga sabab bo'lmoqda. Yuqorida ta'kidlab o'tilgandek eftaliylar o'zining madaniyati va diniy dunyoqarashi nuqtai nazaridan turlicha bo'lgan xalqlarni birlashtirgan. Natijada bu davrda turli diniy e'tiqodlar va diniy tizimlar vujudga kelgan.

O'rta Osiyoda Erondagidan o'zgacha shaklda mavjud bo'lgan zardushtiylik bilan bir qatorda, moniylik diniy oqimi ham mavjud bo'lgan. Markaziy Osiyoda zardushtiylik mahalliy boshqa dinlar bilan uyg'unlashgan holda mavjud edi. Jumladan, Siyovush va Anahita e'tiqodi zardushtiylik diniy marosimlari bilan birikib ketgan. Shu bilan birga eramizning IV asrida zardushtiylar Navro'z kuni erta tongda Buxoroda Siyovush qabri ustida xo'rozni qurbonlikka keltirganlar.

Arxeologik tadqiqotlar orqali qo'lga kiritilgan terrakota topilmalari hamda tangalardagi tasvirlar bu davrda hali ham Vaxsh, Mitra, Anahita e'tiqodi hukm [2, 126] surganligidan guvohlik beradi. Dunyoviy dinlardan biri sanalgan buddaviylik e'tiqodi ham eftaliylar davrida mavjud bo'lgan.

Bir guruh mutaxassislar eftaliy hukmdorlarning buddizmni qo'llab quvvatlagan desalar, yana bir guruh olimlar eftaliylar aksincha istilochilik yurishlari davrida buddaviylik ibodatxonalari vayron etganliklari ta'kidlanadi.

Olimlarning tadqiqotlaridan shu narsa ma'lum bo'ladiki, eftaliylarning Shimoliy Hindistonni zabt etishlari ularni buddizm bilan yaqinroq tanishishlariga zamin yaratadi. Bu esa eftaliy tangalarida buddaviylikdagi hosildorlik ramzining 'purna-ghata'ning, aks ettirilishida ko'zga tashlanadi.

Eftaliylar hattoki buddaviylik ibodatxonalari qurilishida ham faol tashabbus ko'rsatganliklari Marvda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar orqali ochib o'rganilgan "sangharama" dan ma'lum. Olimlarning bir guruhi eftaliylarning xristianlikning Nestorian oqimi tarafdorlari bo'lganliklarini ta'kidlaydilar. Bu ma'lumotlar olimlar tomonidan arxeologik tadqiqotlar va manbalarga asoslangan holda keltiriladi. Jumladan, V asrda Marvda eftaliylar davrida yepiskoplik mitropoliyaga aylantirilgan. Marv esa Markaziy Osiyodagi nestorianlik markaziga aylangan. VII asr boshlarida esa Toxaristonda maniheylarning bosh qarorgohi mavjud bo'lgan. Markaziy Osiyoda diniy marosimlarni xristianlar-suriy, maniheylar-parfiy, buddistlar esa –sanskrit tilida olib borganlar.

Bu dinlardan tashqari eftaliylar davlatida hinduizm, hamda tabiat kuchlariga sig'inish mavjud bo'lgan. Umuman olganda eftaliylar davrida yagona hukmron bo'lgan va davlatning rasmiy dini darajasiga ko'tarilgan din haqida yagona xulosa mavjud emas. Bundan ko'rish mumkinki diniy bag'rikenglik bu davlatning muhim ko'rinishlaridan biri bo'lgan.

O'rta Osiyoning eftaliylar davri san'atining o'ziga xos xususiyati unda antik davrning yakuniy bosqichi hamda ilk o'rta asrlarga xos ko'rinishlarning mavjudligidir. Toxariston va So'g'dda shivaizm hamda mahalliy xalq e'tiqodlarini uyg'unlashtiruvchi san'atning o'ziga xos "eftaliycha" maktabi shakllandi. Bu davr moddiy madaniyati yodgorliklari sirasiga Toxaristondan topilgan eftaliylarning o'yma gemma-muhrlarini kiritish mumkin. Ular almandin toshlardan yasaliy yuz qismi bo'rtirib, orqa qismi esa tekislab ishlangan. Unda erkak kishining yon tomondan tasviri aks ettirilgan. Uning chap tomonida esa "Asparobido" (otliqlar boshlig'i) degan yozuv bitilgan. Ilk o'rta asrlarga oid devoriy suratlar esa Dilberjin (Afg'oniston), Bolaliktepa, Ajinatepa, Kofirqala (Tojikiston), Qal'ai-Kofirnihon, Qal'ai Shodmon kabi yodgorliklardan topilgan.

Bu devoriy suratlardagi tasvirlarning mavzusi asosan diniy e'tiqod marosimlariga oid bo'lib, Bolaliktepa yodgorligi esa bundan mustasno. San'atshunoslar shu davrga oid turli rassomlik maktablarini aniqlaganlar.

Jumladan, Toxariston rassomlik maktabiga: Bolaliktepa, Ajinatepa, Kofirqala (Tojikiston); shimoliy Toxariston rassomlik maktabiga: Quva va Yettisoydagi buddaviylik ibodatxonasi;

gʻarbiy oʻlka rassomlik maktabiga: Soʻgʻddagi, Xorazm va Varaxsha saroylaridagi tasvirlar, Qahqaha (Ustrushona) va Afrosiobdagi ixshidlar saroyidagi devoriy suratlar hamda Tok-kaladagi ostadon tasvirlarini kiritganlar. Yuqoridagi tasvirlar qatorida buddaviylik yodgorligi Qoratepadan topilgan IV-V asrlarga oid devoriy suratda tasvirlangan erkak kishining tasviri ham eftaliylar gemma va tangalaridagi tasvirlar bilan oʻxshashligi olimlar tomonidan eʼtirof etildi. Bu topilmalar qatorida qadimgi Marv buddaviylik yodgorligidagi buddaviylik stupasi yonidan budda haykalining boʻlaklari bilan birga topilgan vazani misol qilish mumkin.

Ushbu vazadagi tasvirlar kishida oʻzgacha qiziqish uygʻotadi. Vazaning ichida V-VI asrlarga oid Sanskrit tilidagi qoʻlyozma saqlangan boʻlib, uning oʻzi rasmlar bilan bezatilgan. Vazadagi sahnani mavzu jihatdan toʻrt qismga ajratish mumkin. Birinchi qismda vazada tasvirlangan odamning bazm payti, ikkinchisi ov payti, uchinchi sahnasi uning kasalligi va toʻrtinchi sahnasi esa uning dafn marosimidan iboratdir. Eftaliylar davriga oid terrakotalar asosan Chogʻaniyon hududlaridan topilgan boʻlib ular V-VIII asrlar bilan belgilanadi. Bu terrakotalardagi tasvirlar asosan bodhisatvalarni aks ettiradi. V-VI asrlarda ayol haykalchalari keskin qisqarib, oʻrniga boy liboslar kiygan, qoʻlida katta ikki tomonlama qilich tutgan salobatli hukmron va maʼbud haykalchalari koʻpayadi.

Yerqoʻrgʻon ibodatxonasida bunday haykalchalardan oʻnlab topilgan boʻlib, ularda katta qilichga tayangan va otashgoh ushlagan odam tasvirlangan. Bu tasvirlardagi odam – muqaddas olovni saqlovchi va asraguvchi shoh, ayni paytda oʻzi kohin ham boʻlgan. Shu davrlarda Soʻgʻdda homilador ayol tasvirlari bilan birga jinsiy tomoni boʻrttirib koʻrsatilgan erkak haykalchalari paydo boʻladi. Ana shunday haykalchalar Yerqoʻrgʻondan, Xorazmning Bozorqalʼasidan esa tumor sifatida ishlangan ikkita lingam shaklidagi taqinchoqlar topilgan. Ular hosildorlikka homiy erkak zoti namoyondalarini aks ettirgan.

Bu ramzning qadimgi topilmalari chorvachilik va qishloq xoʻjaligi bilan shugʻullangan qabilalarning hosildorlik eʼtiqodlariga borib taqaladi. Shu davr [7, 62; 4, 50] kulolchiligiga doir namunalarda asosan turli koʻrinishdagi chiziqlar hamda ularning dastalarida turli hayvon va odam tasvirlarini uchratish mumkin. Qashqadaryoning Yerqoʻrgʻon ibodatxonasi atrofidagi kulollar mahallasi VI asrgacha mavjud boʻlib, keyinchalik eftalit davlati qulashi oqibatida vayron etilgan. Koʻpchilik uylarda hunar homiysiga bagʻishlangan ikkita yoki bitta eshikli alohida xona boʻlib, loydan bejirim buyum yasab, uni tandirda yaxshi kuydirish va omadli sotish uchun kulolchilik xunari homiylariga toat-ibodat etilib, qurbonlik keltirilgan.

Mahalla uylarining bir xonasida erda diametri 30 sm boʻlgan chuqurcha kuydirilmagan idish va xum siniqlari bilan toʻldirilgan. Bu – kulol oʻchogʻiga navbatdagi xom ashyono solishdan oldin, natija yaxshi boʻlishi uchun olov ilohiga qurbonlik keltirilgan tortiq boʻlgan. Shuningdek, kulollar mahallasida IV-VI asrlarga mansub boʻlgan kichkina sopol obi nonlar topilgan. Olimlar ularni

novvoylar tumor sifatida ishlatganlar yoki baraka keltirsin deb uyda saqlanganligini e'tirof etadilar. To'quvchilar mahallasida esa to'qimachilik langarchalari va so'richalari qurbonlik qilingani aniqlangan. O'zbekiston hududida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar orqali eftaliylar davri badiiy hunarmandchiligiga doir bir qator qimmatbaho materiallar ham qo'lga kiritilgan. Ular qatorida Samarqand shahrining Chelak qishlog'idan topilgan kumush lagandir. Ushbu topilma bir tomondan badiiy bezagining o'ziga xosligi bilan ajralib tursa, ikkinchi tomondan eftaliylar davri metal o'ymakorligining (torevtika) yuqori darajaga ko'tarilganligidan dalolat beradi. Ushbu idishning tag qismida erkak kishining chap tomonga qarab qo'lida lotos (nilufar guli) ushlab turgan holdagi tasviri o'yib ishlangan. Idishdagi tasvirning markaziy qismida esa raqs tushayotgan ayollar tasvirlangan.

Ushbu topilma B.I. Marshak tomonidan idishning tagidagi erkak tasviriga asoslangan holda eftaliylar davriga oid deb topildi. Chunki bu tasvir eftaliy hukmdorlari Toraman va Kingilaning 430-490 yillarda zarb ettirgan tangalardagi tasvirlarga juda yaqindir. Ularda hukmdorlar tasviri yirik etib tasvirlanib, burninig kattaligi va baland uzunchoq bosh kiyimi bilan ajralib turgan. Ushbu topilma san'atshunos olimi G.A. Pugachenkova tomonidan yetarlicha talqin etib berilgan. B.I. Marshak tomonidan ushbu topilmadagi tasvirlar o'z uslubi jihatidan Hind san'atiga yaqinligi e'tirof etildi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, eftaliylar davrida Markaziy Osiyoning katta qismi va Shimoliy Hindistonning yagona bir davlatga birlashtirilishi madaniy aloqalar uyg'unligiga ham katta ta'sir ko'rsatgan.

Shuningdek, eftaliylar davri qo'shiqlari va eposlari ham mavjud bo'lganki ular haqida Firdavsiyning "Shohnoma" asari hikoya qiladi. Sharqda qadimdan nishonlanib kelingan Navro'z va unga xos xalq marosimlari Buxoro, Samarqand va boshqa shaharlarda va hududlarda keng bayram qilingan. Eftaliylar shaharlarida mangu olov uylari –otashkadalar bo'lib ular zardushtiylik dinining muqaddas maskanlari sifatida aholi tomonidan ziyorat etilgan. Xullas, eftaliylar davrida o'lkamiz xalqlari o'ziga xos boy madaniy va ma'naviy turmush tarzini yaratib, undan bahramand bo'lganlar. Ayni chog'da, ular o'zlaridan keyingi avlodlar uchun munosib iz qoldirganlarki, bunga ularning davriga oid turli hududlardan topilgan ko'plab noyob topilmalar, osoriatiqalar guvohdir.

Eftaliylar davrining ijtimoiy-iqtisodiy munosbatlarining o'ziga xos tomonlaridan biri bu, yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishidir. Arxeologik materiallarning guvohlik berishicha bu davrga kelib davlatda siyosiy tarqoqlik va markazga bo'ysunmaslik yuz bergan. Eftaliylarning bosqinchilik harakatlari, so'ngra ularning birlashgan dushman kuchlariga qarshi olib borgan janglari – ishlab chiqarish kuchlarining pasayishiga, sug'orma maydonlarining hamda shaharlarning qisqarishiga sabab bo'ldi. S.P. Tolstov hamda K.V. Treverning ta'kidlashicha eftaliylar orol bo'yi massagetlarining avlodlari bo'lib, ularda boshqalarga nisbatan jamoaviy – demokratik an'analar saqlanib qolib, oilaviy turmushda poliandriya (ko'p erlik) mavjud bo'lgan.

Xitoy manbalaridan biri “Beyshi” da “Aka-ukalar bitta xotinga ega bo‘lganlar. Aka-ukasi bo‘lmagan erning xotini bir uchli qalpoq kiyib yurgan, ko‘p erliklar esa ularning soniga qarab qalpoqlarining uchini ko‘paytirganlar, kiyimlarida ham shuncha yeng bo‘lgan”. Shunga o‘xshash ma’lumotlar “Suyshu” da ham bo‘lib, bu kabi odatlar K.V. Treverning ta’kidlashicha massagetlar orasidagi bo‘lgan odatlar eftaliylar jamoasi orasida ham saqlangan. “Beyshi”da aytilishicha eftaliylarning yuqori qatlamida ko‘p xotinlik mavjud bo‘lgan. “Lyanshu” da esa zodagonlarning oltin va qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan kiyimlar kiyganliklari aytiladi.

Manbalardan ma’lumki eftaliylarda sochlarini qirib yengi kalta uzunko‘ylak kiyish odat bo‘lgan. Eftaliylarning ana shunday kiyinish madaniyatlaridan guvohlik beruvchi ma’lumotlar Sharqiy Turkiston hududidan topilgan va V-VI asrlarga oid bo‘lgan devoriy suratlarda aks etgan. Ilk o‘rta asr So‘g‘d va Toxaristondagi ayollar kiyimlari esadevoriy suratlar, terrakota va [6, 28] haykalchalardagi tasvirlardan eftaliylarga xos tunik shakldagi keng va tor qilib tasvirlangan ust kiyim va ularning ustida kamzulchalar, bosh kiyimlari, shalvarlari turlari ma’lum. “Beyshi” da aytilishicha taxt otadan o‘g‘ilga o‘tmagan, aksincha taxtga avlodning munosib kishisi o‘tirgan. Turli manbalarda eftaliylarning hayot tarzi turlicha talqin etiladi [5, 117].

Jumladan, Xitoy manbalarida ularni ko‘chib yuruvchi qabilalar deyilsa, vizantiya va arman manbalarida ularning bir qator yirik shaharlarni boshqarganliklari qayd etiladi. Agar tadqiqotchilarning xulosalariga tayansak eftaliylarning janubiy Amudaryo hududlaridagi qismi avvalgidek ko‘chmanchilik hayot tarzida qolgan bo‘lsalar, O‘rta Osiyodagi qismi esa o‘troq bo‘lib, hatto mahalliy aholi bilan birikib ketganlar [8].

Eftaliylarning boshqaruvga oid turli unvon va mansablari kushonlardan o‘tib, so‘ngra ularning ayrimlari, hatto sosoniylar tomonidan ham qabul qilingan. Jumladan “kanurang” (chegara qo‘riqchisi) unvoni dastlab kushonlar, so‘ngra eftaliylar va sosoniylarda ham joriy etilgan. V-VI asrlarda O‘rta Osiyoda shahar qurilishi rivojlana boshlaydi. S.P. Tolstovga ko‘ra Xorazmdagi Xonqa-qala, Ko‘hna – uays, Baroqtom kabi bir qator yodgorliklar xioniy-eftaliylar qabilalari tomonidan saqlanib qolgan. Ular orasida uchta qal’adan iborat bo‘lgan Baroq-tom yodgorligidir. Baroq-tom I yodgorligida ikki qavatli bino saqlangan. Ikkinchi qavatdagi marosimlar xonasida xattoki gilam izlari saqlanib qolgan. Tarixiy manbalar va ularning tadqiq etilishi natijasida olimlarning xulosalariga ko‘ra eftaliylar davlatining poytaxti turlicha keltiriladi. B.G‘. G‘ofurov ularning poytaxti Poykend desa, V.V. Bartold esa Badaxshon bo‘lgan degan fikrni ilgari surgan. S.P. Tolstov esa Poykend poytaxt sifatida mashhur bo‘lganini ta’kidlaydi.

Bu davr madaniy hayotida ham bir qator o‘zgarishlar yuz berdi. Shu davrga oid Varaxsha shahri obidalari, Termiz yaqinidagi Bolaliktepadan topilgan saroy, uning devorlariga ishlangan betakror tasvirlar, o‘ymakorlik va ganjkorlik namunolari – ajdodlarimiz yuksak badiiy mahoratidan yorqin dalolatdir. Bu davrning moddiy madaniyatiga oid yodgorlik sifatida

Xorazmdagi Tuproqqal'ani misol qilish mumkin. Uning tuzilishi to'g'ri burchakli bo'lib, gumbazsimon yo'lakli va burjli mudofaa devori bilan o'ralgan. Devorning janubiy qismidagi darvozadan ibodatxona tomon asosiy ko'cha o'tgan. Ko'ndalang tushgan ko'chalar shaharni 10 ta mavzega bo'lgan. Tuproqqal'aning shimoliy-g'arbiy qismida maxsus ko'tarma supa ustiga xom g'ishtdan saroy qurilgan. Unga yonma-yon ark binosi joylashgan. Bundan tashqari 100 ga yaqin turarjoy, xo'jalik binolari va 8 ta saroy zali mavjud bo'lgan. Qal'aning janubiy-sharqiy burchagidagi 4 ta xonada teri va yog'ochga yozilgan qadimgi Xorazm yozuvidagi 80 dan ortiq xujjatlar topildi.

Ilk o'rta asrlardayoq ijtimoiy-iqtisodiy hayotda muhim o'zgarishlar yuz berdi. Vohalarda yirik sug'orish inshootlari barpo etilib, yangi yerlar o'zlashtirish ishlari kengayib bordi. Yangi yerlarni o'zlashtirish ishlariga urug' boshliqlari, qishloq oqsoqollari boshchilik qiladi. Shu bois ular o'zlashtirilgan yerlarni katta qismini, sug'orish inshootlari yonidagi yerlarni egallaydilar. Shu tariqa katta yer egaligiga asoslangan mulkdorlar tabaqasi shakllanadi, ular bora-bora ziroatkor aholi ustidan hukmronlik qila boshlaydilar. O'sha zamonda ular dehqonlar deb atalgan. Dehqonlarning shaharlarda hashamatli uylari, qishloqlarda esa qo'rg'onlari bo'lib, xizmatkor-cho'rilarga, qo'riqllovchi choparlarga ega bo'lgan. V asrlarda obikor yerlarning asosiy qismi hali qishloq jamoalarining qaramog'ida edi.

Qishloq jamoalarida yashab, yer va suvdan iborat umumiy mulkda o'ziga tegishli yerlari bo'lgan erkin ziroatchilar kashovarzarlar deyilar edi. Ularning bir qismi o'ziga tegishli yerlaridan mahrum bo'lib, bora-bora kadivarlarga aylanib borganlar. Kadivarlar dehqonlar yerini ijaraga olib ishlashga majbur bo'ladi va dehqonlarga qaram tabaqaga aylanadilar. Shu tariqa, qishloq ahli uch tabaqaga bo'linadi [5, 117].

Eftaliylar davlatiga birlashgan aholining etnik tarkibi xilma-xil bo'lgan. Ularning ijtimoiy iqtisodiy hayoti esa bir-biridan tubdan farq qilgan. Eftaliylar kelib chiqishiga ko'ra ko'chmanchi qabilalarga mansubligi tufayli chorvachilik bilan shug'ullanib, yaylovlarda kigiz o'tovlarda yashaganlar. Ular zabt etgan yerlarida obod dehqonchilik vohalariga hamda savdosi rivojlangan shaharlarga ega bo'ldilar. Yillar o'tishi bilan ular mahalliy aholi bilan qorishib ketadilar. Toxariston va So'g'd rivojlangan dehqonchilik va bog'dorchilik markazi hisoblanardi. Qashqadaryo va Zarafshon vohalarida g'alladan tashqari sholi ham yetishtirilardi edi.

Xitoy manbalarida qayd etilishicha, V-VI asrlarda Sharqiy Turkiston va O'rta Osiyo yerlarida paxta ekilar edi. Uning tolasidan oppoq va nihoyatda mayin mato to'qilgan. Xitoy bozorlarida bunday matoga talab katta bo'lgan. Chunki o'sha davrlarda Xitoyda hali paxta ekilmas edi. Aholining dashtlarda yashovchi yarim ko'chmanchi qismi esa chorvachilik, hususan mayda va yirik shohli hayvonlar boqish, tuyachilik, tog'li va tog' oldi mintaqalarida esa yilqichilik bilan

shug‘ullanganlar. Farg‘ona vodiysi hamon o‘zining zotdor arg‘umqlari bilan mashhur bo‘lganlar [6, 28].

Ziroatkor yerlarning kattagina qismi hali ham qishloq jamoalari tasarrufida bo‘lsa-da, ammo mamlakatdagi yer maydonlarining ma’lum bir qismi dehqonlar qo‘lida to‘plana borgan. Buning natijasida qishloq jamoasining kashovarz (erkin qo‘shchi) lari ma’lum darajada dehqonlar asoratiga tushib ularga qaram kadivarlarga aylana borgan. Yirik mulkdorlar, zodagonlar zulmi va asoratining ortishi, aholi quyi tabaqalari huquqining poymol etilishi, ularning ayovsiz ekspluatatsiya qilinishi pirovardida ijtimoiy adolat va haqqoniyat yo‘lidagi xalq harakatlari, g‘alayonlarining yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi. VI asr birinchi choragida Eronda boshlanib, O‘rta Osiyo hududida ham keng tarqalgan Mazdak qo‘zg‘oloni buning yaqqol namunasidir. Mazdakchilar “Z” harfi bilan boshlanadigan 4 narsaning aholi o‘rtasida teng baham ko‘rilishini yoqlab chiqqandilar. Zamin (yer), Zar (oltin), Zo‘rlik (kuch, hokimiyat) va Zan (xotin). Mazdakchilar ilgari surgan bu xil g‘oyalardan shini anglash mumkinki, ular ijtimoiy adolat tushunchasini birinchi o‘ringa qo‘yib, bunda yer-mulk, boyliklarni aholi o‘rtasida barobar taqsimlashni talab qilganlar. Ular davlat hokimiyati tomonidan fuqarolarning dahlsizligi va qonuniy huquqlarini himoya qilinishini, ayollar tengligini yoqlaganlar.

Biroq o‘sha davrda, sinfiy tabaqalanish tobora kuchayib, mulkiy tengsizlik avj olayotgan bir paytda Mazdakchilik g‘oyalarining tantana qilishi yohud hayiotga tadbiq qilinishi mumkin emas edi. Shu bois ham, Mazdak qo‘zg‘oloni tez orada hukmron tuzum kuchlari tomonidan bostirildi. Mazdak va uning ko‘plab tarafdorlari qo‘lga olinib qatl etildi. Shunga qaramay Eron va Turon aholisining keng qatlamlari orasida Mazdak g‘oyalari saqlanib, ularning haq, adolat yo‘lidagi kurashlari ta’kidlanadi

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. T.7. – T.: O‘zbekiston, 1999.
2. Тревер К.В. Эфталитское государство (V-VI вв.) // История народов Узбекистана. Т., 1950. Т.1.
3. Булгаков П.Г. Из арабских источников о Мерве. // Труды ЮТАКЭ. Ашхабад, 1963. Т. XII. С.213-214.
4. Гафуров Б.Г. Таджики. Древнейшая, древняя и средневековая история. М., 1972.
5. Илясов Дж. Некоторые замечания к проблеме эфталитов // Transoxiana. История и культура. Сб. статей. Т., 2004.
6. Курбанов А. Эфталиты (очерки истории). Санкт-Петербург, 2006.
7. Маршак Б.И. К вопросу о восточных противниках Ирана в V в. // Страны и народы Востока. 1971. Вып.10.
8. Пугаченкова Г.А., Ртвеладзе Э.В. Северная Бактрия –Тохаристан. Т.: 1990.